

INSON KAMOLOtida OILA VA DIN TARBIYASINING O'RNI VA AHAMIYATI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika kafedrası 2-
bosqich talabasi Ergashova Oltinoy Aliqulovna*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bevosita inson kamolotida tarbiyaning o'rni va ahamiyati qanchalik muhimligi va bunda oila va ota-onaning o'rni haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek o'tmish ajdodlarimizning inson kamolotidagi tarbiyaviy hikmatli so'zlaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, komil inson, bola siymosi, `qadriyatlar, tafakkur, ma'naviyat.

Abstract. This article directly discusses the role and importance of education in human development, and the role of family and parents in this. It also provides examples of wise sayings of our ancestors about education in human development.

Keywords: national education, perfect person, child image, values, thinking, spirituality

Аннотация. В данной статье непосредственно обсуждается роль и значение образования в развитии человека, а также роль семьи и родителей в этом процессе. Также приводятся примеры мудрых высказываний наших предков о роли образования в развитии человека.

Ключевые слова: национальное воспитание, совершенный человек, образ ребенка, ценности, мышление, духовность

Inson kamoloti tarbiya orqali shakllanadi. Tarbiya insonni ezgulikka, halollikka, vijdon va adolatga yo'naltiradi. Bu jarayonda oila va dinning o'rni beqiyosdir. Oila — insonning birinchi tarbiya maktabi bo'lib, unda mehr, hurmat, sabr, halollik kabi fazilatlar shakllanadi. Din esa tarbiyaning ma'naviy

asosidir; u insonni ruhiy poklik, sabr, shukr, adolat va insonparvarlik sari yetaklaydi.

Oila va din uyg'unligida shakllangan tarbiya insonni har tomonlama komil shaxs sifatida voyaga yetkazadi. Shunday tarbiya olgan inson o'z oilasiga, jamiyatiga, vatani va insoniyatga foyda keltiruvchi, ma'naviy barkamol, halol va vatanparvar shaxs bo'ladi. Shu bois tarbiya, ayniqsa oilaviy va diniy tarbiya, inson hayotining eng muhim tayanchi sanaladi. Har bir xalqning tanazzuli yoki yuksalishi shu yurtda voyaga yetayotgan farzandlarning ilmi, bilimi, ma'naviy dunyoqarashi, urf-odat va milliy qadriyatlarga bo'lgan sadoqatiga bog'liqdir. Ushbu ma'naviy sifatlar esa, albatta, tarbiya orqali shakllanadi.

Tarbiya o'zligini anglagan har qanday jamiyat va har qanday davr uchun ustuvor masala deb qaralgan. Bugungi kunda jamiyatimizdagi yosh avlodni tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb hamda muhim hisoblanadi. Negaki, hayotning tobora raqmlashgan, internet tarmoqlariga asoslanib borishi ushbu dolzarblikni talab etadi. "Milliy va zamonaviy o'zbek bolasining siymosi qanday bo'lishi kerak?" degan savolga javob talab qilmoqda. Bugungi bola o'tgan asr bolasidan keskin farq qiladi, o'zbek o'g'il-qizlari zamonaviy komil inson siymosiga ega bo'lmog'i lozim. Tabiiyki, bu jarayonda oilaviy tarbiyaning o'рни beqiyos. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila muhiti bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o'z ta'sirini o'tkazib turadi.

Ibn Sino ta'biricha, "ota-ona bola tarbiyasini unga ism qo'yishdek oliyjanob vazifadan boshlaydi". Inson kamoloti deganda shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va ma'naviy jihatdan yetuklikka erishish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi — u tarbiya orqali shakllanadi. Tarbiya insonni hayotga tayyorlaydi, uni ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarga yo'naltiradi. Buyuk mutafakkirlar, jumladan, Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy, Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar inson tarbiyasiga nihoyatda katta ahamiyat berganlar.

Abdulla Avloniy: “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat masalasidir.” Alisher Navoiy: “Tarbiyasiz inson — suvsiz daraxt kabidir.” Forobiy: “Insonning eng yuksak fazilati — bu yaxshi axloq va aql.” Ibn Sino: “Bolaga yoshligidan to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish — eng oliy ezgulikdir.” Lekin bugungi kunda hayotimizda va oilada tarbiyaga berilayotga e‘tibor susaygandek. Oilaning boshi bo‘lgan erlarning ba‘zilari ko‘chadagi ulfatchilikdan, ish yuzasidagisafarlardan ortib, o‘z farzandlarini moddiy tomondan ta‘minlashlari mumkin, ularning ma‘naviyjihatdan tarbiyalashga, ruhiy madad bo‘lishga qiziqish va intilishlarini, ularni qiynayotganmuammolar nimalardan iborat ekanligini bilishga, o‘rganishga vaqt ajrata olmaydilar, vaqttopsalar ular bilan gaplashishga hafsala qilmaydilar.

Bolaning jamiyatda mustaqil fikrga ega bo‘lishi, mushkul vaziyatlardan kuchli iroda bilanchiqa olishi, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi yoshlikda olgan tarbiyasiga bog‘liq va muhimhisoblanadi. Yoshlikda bolani kitobga qiziqtirish ham bevosita uning tarbiyasiga ta‘sir qiladi. XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Xos Xojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asaridatarbiyaning o‘rni haqida alohida to‘xtalib o‘tadi va uning ahamiyati muhim ekanligini ta‘kidlaydi. Bola tarbiyasi haqida shunday yozadi: “Farzand qanchalik bilimli, aqlli-xushli bo‘lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug‘ bo‘ladi”. U bola tarbiyasida otaning ma‘suliyatiga alohidae‘tibor beradi. “Kimning o‘g‘il-qizi erka bo‘lsa, deb yozadi u, unga shu kishining o‘zi munglibo‘lib yig‘laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo‘ysa bolada gunoh yo‘q barcha jafo otaningo‘zida; o‘g‘il-qizning xulq-atvori yaramas bo‘lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo‘ladi.

Ota bolalarini nazorat qilib, turli xunarlarni o‘rgatsa, ular ulg‘aygach, o‘g‘il-qizim bor debsevinadi; o‘g‘il-qizga hunar va bilim o‘rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe‘l-atvorlarigo‘zal bo‘lsin”. Ushbu so‘zlarning ma‘nosini, mag‘zini chaqadigan bo‘lsak, demak ota-onafarzandini faqatgina

moddiy ta'minlamash bilan cheklanib qolmay, balki uning tarbiyasiga hamalohida to'xtalib o'tishi kerak.

Buyuk ajdodimiz bobokolonimiz Abu Ali ibn Sino 980-yil Buxoroning Afshonaqishlog'ida tavallud topgan. Ibn Sino o'zining tibbiyotga doir qo'llanmalari bilan birga, o'zining tarbiyaga oid ham bir qacha qo'llanmalarini yaratgan. Inson kamolot sari harakat qilar ekan ibn Sino hayotga, undagi borliqdagi savollarga o'zma'naviyati bilan javob berar ekan— "Insonning kamoloti, tarbiyasidir deydi, ya'ni uning fikricha, tarbiya odamda narsa va hodisaga ongli munosabatda bo'lishni rivoj toptirishi kerak.

Abu Ali ibn Sino bolaning o'smirligidan uning manaviy olami, ruhiyati, tarbiyasiga, uning kelajak uchun foydali, yetuk inson bo'lishini inobatga olar ekan", buning uchun, avvalo bolaning ta'lim tarbiya nazariyasiga alohida e'tibor beradi. Uning nazarida "onglilik inson baxtining asosidir. Har bir inson kuchli, aqlli, jismoniy jihatdan yetuk bo'lmog'i lozim. Agarda kishida buhislatlar bo'lmasa tom ma'noda inson jamiyat a'zosi bo'la olmaydi" deydi. Shuningdek, Ibn Sino bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilish lozimligini, buning uchun esa u bilan alohida suhbat uyushtirish va ertaklar, hikoyalar o'qish ham juda foydali ekanligi haqida yozadi.

Abu Ali Ibn Sino o'zining bola tarbiyasida oilaning o'rni alohida ekanligini ta'kidlab, bevosita oila va undagi farzand tarbiyasi haqida "Tadbiri manzil" asarida ota-onaning oilada farzand tarbiyalashi haqida alohida to'xtalib o'tgan. Otaning farzand ya'ni bola tarbiyasida hamamaliy ham nazariy bilimlarga ega bolishi kerak deydi. Olim oila boshligini bu sohada yetarlibilimi, tajribasi bolmasa u oila a'zolariga yaxshi tarbiya bera olmaydi, deya ta'kidlaydi. Ibn Sinoyaxshi tarbiya oila farovonligi, baxtining asosi, zamini ekanligini, oila muhitida har qanday holatda bolaning barkamol qilib yetishtirish ota-onasining asosiy burchi, vazifasi ekanligini ta'kidlaydi. Bevosita Ibn Sino o'zining qarashlarida jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabulqilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini aytadi.

Jamiyat a'zolarininghammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi lozimligini alohidata'kidlaydi. Agar podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'olonito'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim deb hisoblaydi. O'zining axloq to'g'risidagi fikrlarida insonlarning kundalik ishlaridagi eng zarur axloqiy munosabatlarga, kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to'g'rilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e'tibor beradi. Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bergan bilimi, mehnati natijasidan zavqlana olishni o'rgatishi zarurligini uqtiradi. Bola chiroyli axloqiy tarbiyaga ega bo'ishi hamda hayotda o'z o'rnini topishi uchun, albatta, o'qituvchi unga ko'makdosh bo'ishi va unga chiroyli tarbiyada bo'lishligini ta'kidlab o'tadi. Bolaning sog'lom, aql-taffakkuri yaxshi rivojlanganligi bo'lishi bevosita jamiyatdagi tarbiyali va komil insonlarning soni ortishiga xizmat qiladi.

Yoshlarimizni bevosita mana shuruhda tarbiyalash, har bir jamiyat a'zosining burchi hisoblanadi. Zero xalqimizda "Bir bolaga yettimahalla otana" maqolibejiz aytilmagandek. Afsuski bugungi kunda yon atrofimizda yoshlartarbiyasiga dahldor bo'lgan hodisalarga loyaqdligimiz tufayli ularning ruhiy, ma'naviy dunyoqarashiga dahl qiladigan ko'ngilsizliklar sodir bo'lmoqda.. Oila– tarbiyaning birinchi maskani.

Din inson ruhiyatini tozalovchi, unga hayot mazmunini beruvchi manbadir. Islom dini tarbiyaga nihoyatda katta e'tibor beradi, chunki u insonni komillikka, halollikka, sabrga, adolatga, mehr-oqibatga da'vat etadi.

Oila inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institut. Bola ilk bor oila bag'rida mehr, g'amxo'rlik, hurmat, adolat, sabr, halollik kabi qadriyatlarni o'rganadi. Shu bois oila tarbiyasi inson kamolotining poydevoridir. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda farzandingizga uniyaxshi ko'rishingzni, kelajakda siz uni qanday inson bo'lishini orzu qilishingiz haqida eslatib turing. Buning uchun yaxshi o'qishi kerak ekanligini, doimo oldinga

qarab intilishi va bevosita, eng asosiysi, vaqtdan unumli foydalanishni bilishi zarurligiga haqida doimo eslatib turish kerak. Bola ilk tarbiyani oiladan olar ekan ya'ni qush uyasida ko'rganini qilishini inobatga oladigan bo'lsak, avvalo, ularga namuna bo'lishga harakat qilishimiz kerak. Shundagina komilinsonni tarbiyalashdek maqsadga erishishimiz mumkin. Inson kamoloti tarbiyadan boshlanadi.

Tarbiya insonni komillikka eltuvchi nurli yo'ldir. Oila, maktab va jamiyatning hamkorligi natijasida tarbiyali, bilimli, vatanparvar, odobli insonlar voyaga yetadi. Shunday insonlarga yurtimizning ertangi kunini porloq qiladi.

Adabiyotlar

- 1 . Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.– T.: «Sano standart» nashriyoti, 2017-yil, 154-157.
2. Abu Rayxon Beruniy. Mineralogiya.–T., 2009.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig.–T., 2008
- 4 . Islom ensiklopediyasi. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018